

MAVZU: "ISLOM TINCHLIK VA BAG'RIKENGLIK DINIDIR".

G'ofurov Tolibjon Nurullabekovich

Xorazm viloyati Urganch tumani

Imom Faxriddin ar-Roziy o'rta maxsus islom bilim yurti mudarrisi

Annotatsiya: Jamiyatda, avvalo har bir mo'min-mo'minaga Islom ya'ni Qur'on ilmini yaxshi bilish, Islom tarixni yaxshi bilish va boshqa zarur fanlarni bilish vojib darajasiga chiqdi. Ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarga asosiy vazifasi qilib Islom tarixni yaxshi bilish, din tarixini yaxshi bilish hamda vatanga muhabbat, el-yurt, ota-onaga hurmatni o'rgatish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Alloh, Iymon, Islom, Ehson, Din, Tarix, Adabiyot, Aqiyda, E'tiqod, Tushuncha, Fikr, Tasavvur, ...

Umuminsoniy qadr-qimmatlar bilan yo'g'rilgan islom dinidagi totuvlik va bag'rikenglik masalasi juda muhimdir. Dinimizdagi totuvlik va bag'rikenglik tushunchalari Qur'oni Karim, hadisi sharif hamda ulug' ajdodlarimiz asarlarida o'z isbotini topgan.

Bag'rikenglik so'zining lug'aviy ma'nosi- o'zganing sizga unchalik yoqmaydigan jihatiga sabr va toqat qilishdir.

“Bag'rikenglik” (“tolerantlik”) so'zi deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib “bag'rikenglik” chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma'nolarga ega deyish mumkin. Musulmonlarning boshqalar bilan munosabatlaridagi asosiy tamoyil tinchlikparvarlik, kechirimlilik va bag'rikenglik desak mubolag'a bo'lmaydi.

Islom dinida musulmonlarning boshqa din vakillariga nisbatan bag'rikenglik tamoyillariga asosan munosabatda bo'lishi belgilab berilgan va har bir inson dini, irqi, millatidan qat'iy nazar mukarram ekanligi qayd etilgan: **“Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik”**, deyilgan (Isro surasi 70-oyat).

Alloh taolo o'z bandalarini o'zaro bahamjihatlikka, do'stlik va hamkorlikka, tinchlikka da'vat etib: **“Agar mo'minlardan ikki toifa o'zaro urushib qolsalar, darhol ular o'rtasini isloh etingiz!”** – deb marhamat qiladi. Yaratganning ushbu muborak kalomidan ham bag'rikenglik, ahillikning naqadar bebaho, insonning ma'naviy-axloqiy, ilmiy va aqliy rivojida Benazir ahamiyatga ega ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Imom al Buxoriyning “Al-adab al Mufrad” asarida barcha insonlarning o'zaro hamjixatlikda yashashligi xaqida yozilgan. Jumladan, Abu Hurayra r.a rivoyat qiladi,

Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: **“Bir-biringizga hasad va adovat qilmang, dunyo ishlarida sendan men o‘taman, deb janjallashmang, bir-biringizga teskari bo‘lmang. Ey Allohning bandalari, hammangiz aka-uka bo‘linglar”** dedilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, jamiki insonlar bir-birini hurmat qilishi, qo‘llab-quvvatlashi va o‘zaro nizolarga bormasliklari lozim.

Rivoyat qilishlaricha, Rasululloh sallallohu alayhi va sallam vafot etgan vaqtlarida sovuqlari bir yahudiyning qo‘lida garov evaziga berilgan edi. Nabiy sallallohu alayhi va sallamning sahobalari U zot uchun jonu mollarini fido qilgan insonlar edi. Ular ichida Usmon ibn Affon va Abdurahmon ibn Avf roziyallohu anhumo kabi boy sahobalar ham bor edi. Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning birgina ishoralari bilan bor budlarini U zotning oyoqlari ostiga olib kelib tashlar edilar. Lekin shunday bo‘lsa-da Rasululloh sallallohu alayhi va sallam o‘zga din vakilidan qarz olganlar. Buning sababi o‘zlari namuna bo‘lib jamiyat birdamligi uchun ular bilan qanday muomalada bo‘lish kerakligini ummatlariga ko‘rsatib berganlar. Shuning uchun ham shariatida o‘zga din vakillari bilan inoq munosabatda bo‘lishga oid munosabatlar aniq belgilab berilgan. Buyuk ajdodlarimiz o‘zga din vakillari bilan qanday munosabatda bo‘lish lozim ekanini o‘rgatib, o‘zlari bunda barchaga namuna bo‘lganlar.

Demak, Islom dini musulmonlarni o‘z dindosh birodarlariga va barcha insonlarga yaxshilik, mehr-muruvvat qilishga chorlash bilan bir qatorda, o‘zaro tinchlik va totuvlikda bo‘lgan boshqa din vakillariga ham yaxshilikda va mehr-shavqatda bo‘lishlariga buyurgan.

Alloh taolo elimiz, yurtimizni tinch omon aylab, unda istiqomat qilayotgan barcha xalqimizni bir birlariga nisbatan mehr-oqibatini yanada ziyoda va mustahkam bo‘lishini nasib etsin. Amiy n Robbil a’alamiyn.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qur’oni Karim.
2. Tafsiri Hilol., Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.
3. "Islom dinini umumiy tushuntirish" Shayx Ali Tantoviy